

MUZEYLAR-MADANIYAT MUASSASASI SIFATIDA

Jańabaeva Nargiza Onǵarbaevna

Jaqsimbaeva Dilfuza Aybek qızı

Tajimuratova Shaxnoza saǵımbaevana

(Ilmiy rahbar)

Berdaq nomidagi Qaraqalpoq Davlat Universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11265768>

Annotatsiya. Bu maqolada muzey tushunchasi va faoliyat mazmuni va muzeylarning maqsad va vazifalari, muzeylar faoliyatini yo'lgan qo'yishda davlat organlari vakolatlari haqida sóz etilgan.

Kalit sózlar: Muzeylar, ekspanat, xususiy va davlat muzeylari, ochiq va yopiq muzeylar, muzey –qo'rrixonalar muzey fondi, ilmiy tadqiqot ishi, ekspeditsiya.

MUSEUMS AS A CULTURAL INSTITUTION

Abstract. This article describes the concept of a museum and the content of its activities, the goals and tasks of museums, the powers of state bodies in establishing the activities of museums.

Keywords: Museums, exhibits, private and state museums, open and closed museums, museum-reserves, museum fund, scientific research work, expedition.

МУЗЕИ КАК УЧРЕЖДЕНИЯ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье раскрыты понятие музея и содержание его деятельности, цели и задачи музеев, полномочия государственных органов по налаживанию деятельности музеев.

Ключевые слова: Музеи, экспонаты, частные и государственные музеи, открытые и закрытые музеи, музеи-заповедники, музейный фонд, научно-исследовательская работа, экспедиция.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lgan kiritilgach, shu zaminda asrlar osha istiqomat qilib kelgan avlodu-ajdodlarimiz orzu-umidlari ro'yobga chiqqa boshladi. Bu esa istiqlol yo'lida to'kilgan qutlug' qonning natijasi, xalq yo'lining qaror topishi hamda adolatning tantanasi bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo'lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o'tmishe merosimizni o'rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ'ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Vatanimiz ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar qatorida O'zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham yangi davr boshlandi. Respublikamiz Prezidentining "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni 1998- yil 12 -yanvarda qabul qilinib, u muzey va muzey xodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi. 2008- yil 12- sentyabrda "Muzeylar to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi esa muzey ishida yangi davrni boshlab berdi. Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, jamoa boshqaruvi xo'jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta'limi tizimida ja'mi 1200 dan ortiq muzeylar bo'lib, ularning eng yiriklari poytaxtda joylashgan. Shu bilan birgalikda o'nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san'at arbollarining uy muzeylari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Muzey- madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanib, uning vazifasi tarixiy hujjatlar, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, tabiiy boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o'rganib ko'rgazmalarga qo'yish va keng xalq ommasiga havola qilishdan iborat.

Muzey - muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muzeylarni boshqarish sohasida quyidagi vakolatlarga ega:

- * muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, takomillashtirishga doir dasturlar va qarorlar qabul qiladi;
- * muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilaydi;
- * davlat muzeylarining toifalarini belgilaydi;
- * Milliy muzey fondi to'g'risidagi va Milliy muzey fondining Davlat katalogi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;
- * muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini Milliy muzey fondi tarkibiga kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish tartibini belgilaydi;
- * Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish hamda saqlash tartibini belgilaydi;
- * Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini boshqarish tartibini belgilaydi;
- * Milliy muzey fondi holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi;
- * muzey mutaxassislarini tayyorlash hamda muzey xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirlig muzeylarni boshqarish sohasida quyidagi vakolatlarga ega:

- * Milliy muzey fondining Davlat katalogini yuritadi;
- * muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini belgilangan tartibda Milliy muzey fondi tarkibiga kiritadi hamda uning tarkibidan chiqaradi;
- * Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish yoki universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usulda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazish uchun maxsus ruxsatnoma beradi;
- */Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- * Milliy muzey fondi holati ustidan davlat nazoratini amalgalashadi;
- * Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish tartibi va shartlarini tasdiqlaydi;
- * muzey xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etadi;

Mahalliy davlat hokimiyyati organlari muzeylarni boshqarish sohasida quyidagi vakolatlarga ega:

- * Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hamda o'z hududida joylashgan muzeylarda turgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanishini ta'minlaydi;

* o‘z hududidagi davlat muzeylarini moliyalashtirish miqdorini o‘z vakolatlari doirasida belgilaydi;

* qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

* Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismi holati ustidan davlat nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

* muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanishi holatini hamda ularni saqlash sharoitlarini tekshirish;

* muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari haqida Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari hisobini yuritish uchun zarur bo‘lgan so‘rovnomalar yo‘llash hamda axborot olish.

Xulosa qilib aytganda, Respublikadagi barcha muzey rahbarlari bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan ilmiy-uslubiy yo‘nalishda ishlab, milliy istiqlol g‘oyalari ruhida muzey ishini yanada takomillashtirsa, mavjud muammolar asta-sekin bartaraf bo‘ladi, O‘zbekiston muzeylari keng xalq ommasi orasida madaniyat va ma’rifat tarqatish ishida samarali ishlarni amalga oshiradilar.

REFERENCES

1. Abatbaevna U. V. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QUV JARAYONIGA MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //PEDAGOGS. – 2024. – T. 50. – №. 1. – C. 146-150.
2. Abatbaevna U. V. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QUV JARAYONIGA MOSLASHISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA JARAYONLARI. – 2024.
3. Uzakbaeva V. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS AND PROCESSES OF ADAPTATION TO THE EDUCATIONAL PROCESS IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 988-990.
4. Tajimuratova S. CONCEPT OF FURTHER DEVELOPMENT OF NATIONAL CULTURE IN UZBEKISTAN //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 251-254.
5. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 841-849.
6. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 9. – C. 386-392.
7. Sag’inbaevna T. S. Cultural Life in Uzbekistan during the Years of Independence //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2023. – T. 18. – C. 39-41.
8. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 841-849.
9. Saginbaevna T. S. Management and study of culture and art. – 2022.

10. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КҮНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
11. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 509-511.
12. Tajimuratova S. BASQARIW DÁREJESIN ILIMIY DÁREJEDE RAWAJLANDIRIW //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 24-27.
13. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 509-511.
14. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 9. – C. 386-392.
15. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КҮНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
16. Shaxnoza T., Rayxan K. JOYBARLARDIŃ SHÓLKEMLESTIRIWSHI STRUKTURALARI //NEW RENASSAINCE CONFERENCE. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 124-128.